



AXBOROTNING TA'LIMYIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOG MAHORATI BOSH MUHIM OMIL

Aliboyev T Ch

Texnologik ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, dotsent. JDPU.

Annotasiya: *Har qanday ta'lim tizimida o'quvchi yoki talaba dastlabki ta'limiy axborotlarni o'qituvchidan oladi. Shu ma'noda pedagogning jamiyat oldidagi burchi ham olijanob, ham murakkab bo'lib, u yoshlarni tarbiyalash, ma'lum fan bo'yicha bilim berishdek muhim vazifa bilan shug'ullanadi. Shu boisdan o'quvchini darslar unga qiziqarli bo'lishi uchun hozirgi davr o'qituvchisidan juda katta axborotga ega bo'lishlik, iqtidor hamda ijodkorlik talab etadi. Maqolada axborotning ta'limiy samaradorligini oshirishda pedagog mahorati bosh muhim omil xaqida so'z yuritiladi*

Tayanch so'zlar: *axborot, ta'lim, samardorlik, pedagogik mahorat, jamiyat, ko'nikmalar.*

Аннотация: *В любой образовательной системе ученик или ученик получает от учителя первичную образовательную информацию. В этом смысле долг педагога перед обществом благороден и сложен, он занимается такой важной задачей, как воспитание молодежи, передача знаний по определенной дисциплине. Поэтому для того, чтобы уроки были интересны ученику, от нынешнего учителя требуется огромное количество знаний, таланта и творчества. В статье речь пойдет о главном важном факторе мастерства педагога в повышении образовательной эффективности информации*

Ключевые слова: *информация, образование, эффективность, педагогическое мастерство, общество, навыки.*

Annotation: *In any educational system, the student or student receives initial educational information from the teacher. In this sense, the duty of an educator to society is both noble and complex, and he is engaged in such an important task as educating young people, imparting knowledge in a particular discipline. Therefore, in order for the student to be interesting to him, classes require a huge amount of information from the teacher of the current period, talent and creativity. The article will talk about the main important factor of pedagogical skill in improving educational efficiency of information*

Base words: *information, education, efficiency, pedagogical skills, society, skills.*

XXI asr bo'sag'asida axborot jamiyatning shu qadar muhim bo'lagi va tarkibiy qismiga aylandiki, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligi ko'p jihatdan unga bog'liq bo'lib qoldi. Chunki har qanday ta'lim tizimida o'quvchi, talaba yoki kursant dastlabki ta'limiy axborotlarni o'qituvchidan oladi. Shu ma'noda pedagogning jamiyat oldidagi burchi ham olijanob, ham murakkab bo'lib, u yoshlarni tarbiyalash, ma'lum fan bo'yicha bilim berishdek muhim vazifa bilan shug'ullanadi. Ana shu muhim vazifaning nechog'liq bajarilishi birinchi navbatda oldin so'z yuritilgan ta'limiy axborot beruvchi pedagogning



mahoratiga bog'liqligini bir vaqtlar, sobiq Ittifoqning taniqli pedagogi M.Shchetinin⁵ shunday bayon qilgan edi: "Bugun bizning sinflarimiz "uxlayotgan" o'quvchilar bilan to'la. O'quvchilarning uxlab o'tirishlarida ularning hech aybi yo'q, bu-bolalar organizmini miqdor jihatdan ko'p, sifat jihatdan esa arzimas darslardan o'zlarini tabiiy himoya qilishlari tufaylidir. Buni har bir o'qituvchi anglab etmas ekan bolalarimiz darslarda o'nlab yillar uxlab o'tiraveradilar".

Darslarning o'quvchilar uchun zerikarli bo'lishining sabablaridan biri ayni paytda televidenie, radio, matbuot va boshqa axborot vositalarining har kuni bolalarni yangidan-yangi ma'lumotlar bilan qurollantirayotgan bir paytda, ko'p hollarda, o'qituvchi beradigan ma'lumotning darslik materiallaridan nari o'tmay, na mazmunan va na ko'rsatmaliligi bilan ommaviy-texnik axborot manbalarining ma'lumotlaridan oldinga o'ta olmayotganidadir. Shu boisdan o'quvchini "uyqudan uyg'otish" va darslar unga qiziqarli bo'lishi uchun hozirgi davr o'qituvchisidan juda katta axborotga ega bo'lishlik, iqtidor hamda ijodkorlik talab etadi.

Buni quyidagicha izohlash mumkin. Pedagogik amaliyot tugaganidan keyingi yakuniy hisobot konferensiyasida talabalarimiz o'z bilimlari zahirasi juda kamligidan afsuslanishdi. Ulardan: "Nega endi bilimlaringiz etmaganida lug'at, ensiklopediyalardan foydalanmadilaringiz?"-deb so'raganimizda ular "Gap lug'atlardan foydalanishda emas. Bizda amaliyot davrida, o'zimiz bilan bo'lishi kerak bo'lgan narsa etishmadi",-deb javob berishdi. Ular o'zlarida yo'q "narsa" deganda zaruriy ilmiy axborotlarni nazarda tutayotganliklarini ta'kidlashdi.

Aytilganlardan ko'rinadiki faqat o'z fani materiallarini o'rganishdan tashqari, barcha boshqa sohalar bo'yicha ham etarlicha axborotiy ma'lumotlarga ega bo'lgan, keng bilimli, ijodkor pedagoglarga o'quvchilarning e'tiborini o'ziga jalb etib ("uyg'otib") o'z faniga qiziqтира oladi.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, boy axborot resursiga ega bo'lishning o'zi etarli emas. Axborot sohibi garchi ko'plab bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa-da, bu bilimlar o'quvchilarning qalbiga etib bormasa, ularning hayajon (emosional) li faolligini oshirmasa behuda urinish bo'lib qolaveradi. Jumladan, ko'pchilik hollarda ma'lum predmet uchun ajratilgan vaqt fondini, pedagogik sharoitni, shuningdek o'quvchi (talabalar) ning bilim zahirasi va darajalarini hisobga olmagan holda, ushbu fan bo'yicha o'quv dasturida keltirilgan hamma materialni to'la-to'kis o'tib berishga harakat qilishdek maqsadga nomuvofiq ishlar amalda kuzatiladi. Bunday muammoli izlanish va ijodkorlikdan mahrum ta'lim (yo'l) o'z navbatida, o'quvchilarda mazkur o'quv fani mazmuni bo'yicha bilimlar tizimining keng shakllanishi o'rniga, aralash-quralash tor tasavvurlar hosil qilib, ularga fan asoslarini amalda qo'llay olishdek zaruriy malaka va ko'nikmalarni bera olmaydi.

Bu esa hozirgi kunda har bir fan o'qituvchisidan o'z fani materialidan tashqari ta'limning pedagogik-psixologik asoslari bilan yaxshi qurollangan bo'lishini,

⁵ М.Шчетинин. Логика-методологические аспекты педагогических исследований. Проблемы обучения и воспитания молодежи. Уфа, 1997. №7.



o'qitishning shakl va uslublarini yaxshi bilishni talab qiladi. Bu o'z navbatida, o'qituvchining o'z pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan tinimsiz intilishi va jonkuyarligini taqozo etadi.

Tajribalardan ma'lumki, konkret olingan biror sinf o'quvchilarining zamonamiz talablariga mos barkamol avlod bo'lib etishishida pedagoglarning xizmati beqiyosdir. Bunday mas'uliyatli vazifada ijobiy natijaga erishish ham, bevosita o'qituvchining boy axborot resursiga ega bo'lishi bilan bog'liq, yuksak pedagogik mahoratiga borib taqaladi.

Hech kimni qirg'oqdan kuzatib turib suzishga o'rgatish mokin emasligini ya'ni bilm va ko'nikmalarni faqat ma'ruza o'qish bilan rivojlantirib bo'lmasligini yaxshi tushunadilar. Yoshlarga ilm-fanning beadam ummonida erkin suza olishini o'rgatish uchun esa, pedagogning o'zi qayta-qayta ta'kidlaganimizdek mohir "suzuvchi" bo'lishi talab etiladi. Bu haqda buyuk donishmandlarimizning "qanday biliming bo'lsa, angushvonadek bilim bera olasan" degan hikmati g'oyat ibratli ekanligini unutmasligimiz lozim.

"Sharq pandomalari"⁶ dan o'rin olgan: "Aflotunning Arastuga vasiyati" dagi, "Shuni bilginki, ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qila olmaydi. Xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar sen o'z shogirdingni tarbiyalamoqchi bo'lsang avval o'z ruhingni yaxshilashdan boshla. Mabodo o'zgalar aybini bartaraf etishni ixtiyor etsang, bundan oldin o'zingni nuqson va illatlardan tozalashing zarur" degan dono so'zlari va "Birinchi muallim" nomini olgan Arastuning "Arastuning Iskandarga nasihati" da keltirilgan: "Shuni bilginki, agar xulqing buzuv bo'lsa, fuqaroni to'g'ri yo'lga boshlash qo'lingdan kelmaydi, agar gumroh bo'lsang, ularga yo'l boshchilik qila olmaysan, agar o'zing yo'ldan adashgan bo'lsang ularga pand-nasihati qila olmaysan. Axir, ko'zi ojiz bo'lgan kishi qanday qilib ko'rga yo'l ko'rsata oladi? Kambag'al odam o'zgani boy qila oladimi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro' va qadr-qimmat ato qila oladimi?" degan nasihatlarini har bir pedagog (ustoz, murabbiy) o'ziga burch deb qabul qilib olishini alohida ta'kidlash kerak.

Shuningdek, Sharq Arastusi ("ikkinchi muallim") deb tan olingan mashhur o'rta asr faylasufi vatandoshimiz Abu Nasr ibn Muhammad al Farobiy (IX-X asr) o'zining "Namunali ta'lim haqida" risolasida o'qituvchining faoliyatini mamlakatning dono hukmroniga o'xshatadi. O'qituvchini: "Bunday odam, inson erishishi mumkin bo'lgan eng oliy darajaga erishmog'i, baxtlilikning cho'qqisidan o'rin olmog'i lozim. U insonni baxtga erishishining barcha yo'llaridan ogoh bo'lgan zotdir", -deb ta'riflaydi⁷.

Butun Movaraunahr donishmandlarining orasida "Shayx-ur-ra'is", ya'ni "olimlarning olimi", "donolik tarozisi" unvonini va Sharqda Arastu hamda Forobiydan keyingi "uchunchi muallim" nomini olgan buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino ham o'qituvchi mahoratiga katta e'tibor beradi.

⁶ "Sharq pandomalari" – Fan va turmush-№8, 1988.,28-bet;

⁷ Ya.Shermuhamedov. "Ikkinchi muallim" insoniy kamolot haqida. Fan va turmush. №10, 1975., 28-29-betlar.



O'zining "Donishnoma", "Salomon va Ibsol qissasi", "Tadbiri manozil", "Xayn ibn Yaqzon" va boshqa asarlarida turli bilimlarni egallashning ahamiyatini qayta-qayta uqtirib o'tadi.

Abu Ali Ibn Sino tarbiyachining shaxsiy ibratiga katta e'tibor beradi. U kattalarning va murabbiylarning kelishmagan qiliqlari, bola hulqining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Tarbiyachi faqat so'z bilan emas, balki yurish-turishda, xulq atvorda, bilimda, odobda, xullas har jihatdan o'rnak bo'lishi lozim".

Xulosa qilib aytganda, Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimi faoliyatining samaradorligi, birinchi navbatda, unda inson omili qanday hal qilinayotganligi, boshqacha aytganda, ulardagi barcha pedagogik kadrlarning mahorati yoki mavzudan kelib chiqib aytganda ularning boy axborot resurslariga egaligi ularni amalda qo'llay olish malakalari qay darajadali bilan belgilanadi.

Antik dunyodan to hozirgi kunimizgacha etib kelgan va umum bashariyat tan olib kelayotgan bu muhim omil ijobiy hal qilinmay turib, ta'lim tizimi o'zining nuqsonlaridan osonlikcha kutula olmaydi.

Haqiqiy mahoratli pedagoglarning bilimlari ularning emosiyalari bilan yo'g'rilgan bo'lib akliligida, ongliligida va axloqiy etukligida namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, mohir pedagogni hech bir ikkilanmasdan yarim maktabga qiyoslansa mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.V. Pushkin. Evristika – nauka o tvorcheskom mishlenii, M., 1967
2. B. Kedrov. O tvorchestve v nauke i texnike Moskva, "Molodaya gvardiya" 1987 g.
3. M.Shchetinin. Logika-metodologicheskie aspekti pedagogicheskix issledovaniy. Problemi obucheniya i vospitaniya molodeji. Ufa, 1997. №7.
4. "Sharq pandnomalari" – Fan va turmush №8, 1988.,28-bet;
5. Ya.Shermuhamedov. "Ikkinchi muallim" insoniy kamolot haqida. Fan va turmush. №10, 1975., 28-29-betlar.
6. Sharq allomalari tarbiya xususida. Ibn Sino odob haqida. Fan va turmush. №11, 1984., 18-19-betlar.